



SPECIFIC FEATURES OF COLLOQUIAL VOCABULARY

Sabrina Keldiyorova

*Higher School of Iranian and Afghan Studies
2nd-year student of the Persian-English group
Tashkent State University of Oriental Studies
sabrinakeldiyorova97@gmail.com*

S. Sulonkhojayeva

*Senior Lecturer at the Higher School of Iranian and Afghan Studies, TSUOS
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: colloquial style of the Persian language, oral speech, expressions, folk expressions, vocabulary, imagery, emotionality.

Abstract: This article analyzes the colloquial style of the Persian language, its specific features, and expressions used in everyday speech. The simplicity, emotionality, and expressiveness of colloquial language are illustrated with examples.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

SO‘ZLASHUV TILI LEKSIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sabrina Keldiyorova

*“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi
2-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
sabrinakeldiyorova97@gmail.com*

S. Sulonxodjayeva

*TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: fors tilining so‘zlashuv uslubi, og‘zaki nutq, iboralar, xalqona ifodalar, leksika, obrazlilik, hissiylik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada fors tilining so‘zlashuv uslubi, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda kundalik nutqda qo‘llaniladigan ibora va ifodalar tahlil qilinadi. So‘zlashuv tilining soddaligi, hissiyligi va obrazliliigi misollar asosida yoritiladi.

ОСОБЕННОСТИ РАЗГОВОРНОЙ ЛЕКСИКИ

Сабрина Келдиярова

Высшая школа иранистики и афганистики

Студентка 2 курса персидско-английской группы

Ташкентский государственный университет востоковедения

sabrinakeldiyorova97@gmail.com

С. Султонходжаева

Старший преподаватель Высшей школы иранистики и афганистики ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: разговорный стиль персидского языка, устная речь, выражения, народные выражения, лексика, образность, эмоциональность.	Аннотация: В данной статье анализируется разговорный стиль персидского языка, его особенности, а также выражения, используемые в повседневной речи. Простота, эмоциональность и образность разговорной речи раскрываются на примерах.
---	--

Kirish. Har bir xalqning tili uning madaniyati, tafakkuri va turmush tarzini o‘zida aks ettiradi. Ayniqsa, so‘zlashuv nutqi insonlarning kundalik hayotida eng faol qo‘llaniladigan aloqa vositasi hisoblanadi. Unda nafaqat so‘zlar, balki mimika, yuz ifodalari, ohang va hissiy holat ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli so‘zlashuv tili odatda sodda, qisqa va ta’sirchan bo‘lib, kuchli obrazlilik va hissiylik bilan ajralib turadi.

Fors tilida so‘zlashuv uslubi (zabone omiyone) عاميانه deb ataladi. Ushbu til shakli kundalik, norasmiy muloqotda keng qo‘llanilib, unda xalqona, jonli va obrazli ifodalar ko‘p uchraydi. Eron xalqi nutq madaniyatida kinoya, o‘xshatish va turli obrazli iboralardan mahorat bilan foydalanishi bilan ajralib turadi. Natijada fors tilining so‘zlashuv leksikasi rang-barang, boy va ifodali hisoblanadi.

So‘zlashuv tili tilning muhim uslubiy turlaridan biri bo‘lib, u asosan kundalik hayot, oddiy muloqot va norasmiy vaziyatlarda ishlatiladi. Unda qisqartirilgan shakllar, slang iboralar va mahalliy ifodalar keng qo‘llanadi. Mazkur maqolada fors tilining so‘zlashuv uslubiga xos iboralar, ularning ma’nosi hamda nutqdagi qo‘llanilish xususiyatlari tahlil o‘rganiladi.

1. «سه سوت /سه سوته» iborasi juda tez, bir zumda yoki ko‘z ochib yumguncha degan ma’noni bildiradi. U odatda biror ish qisqa vaqt ichida tez va oson bajarilganini ifodalash uchun ishlatiladi.

هر چه بخای واست میارم سه سوته.

Nima istasang bir zumda olib kelaman.

الان سه سوت واست غذا درست میکنم.

Hozirning o‘zida senga ovqat tayyorlab beraman.

سه سوه حاضر ميشم، نگران نباش

Darrov tayyor bo‘laman, xavotir olma

2. “به سيم آخر زدن” — fors tilidagi ibora bo‘lib, tavakkal qilish, xavf-xatarga qaramay harakat qilish yoki ehtiyot choralarini ko‘rmasdan ish tutish ma’nosini anglatadi. Mazkur ifoda keskin qaror qabul qilish yoki oqibatini o‘ylamasdan biror ishni bajarish holatlarini obrazli tarzda ifodalaydi.

به سيم آخر زدم و کارو تعطيل کردم

Tavakkal qilib, ishni butunlay to‘xtattim.

به سيم آخر زدم و هرچی تو ذهنم بود بهش گفتم

Tavakkal qilib oxirgi choraga qo‘l urdim va miyamda nima bolsa, hammasini aytdim.

3. Fors tilida maqtov va rag‘bat ma’nosini ifodalovchi keng tarqalgan so‘zlardan biri «آفرین» hisoblanadi. Ushbu leksema kimnidir maqtash, uning bajargan ishini e’tirof etish va ijobiy baholash maqsadida qo‘llanadi. So‘zlashuv nutqida esa unga yaqin ma’noni anglatuvchi «دمت گرم» (damet garm) va «ايول» kabi sinonimlari faol ishlatiladi.

Xususan, «دمت گرم» iborasi fors tilining og‘zaki uslubiga xos bo‘lib, minnatdorchilik, rag‘bat va samimiy e’tirofni ham bildiradi. Mazkur ibora tarkiban «دم» (nafas, jon) va «گرم» (issiq) so‘zlaridan tashkil topgan. Ma’lumki, insonning nafasi issiq bo‘lishi uning tirik va sog‘lom ekanligidan dalolat beradi. Shu bois iboraning dastlabki ma’nosi “nafsing issiq bo‘lsin”, ya’ni “sog‘-salomat bo‘l” tarzida izohlanadi. Keyinchalik esa ushbu ifoda semantik kengayish natijasida minnatdorchilik va maqtov ma’nolarini ham anglatadigan bo‘lgan.

امتحان رو قبول شدی؟ دمت گرم

Imtihondan o‘tding? Barakalla!

ايول چه عكس قشنگی گرفتی؟

Qoyil! Qanday chiroyli suratga olgansan!

چه خوب می خونی، ايول بابا

Qanday yaxshi kuylaysan, barakalla do‘stim

Minnatdorchilik:

دمت گرم که به من کمک کردی

Rahmat, menga yordam berganing uchun.

دمت گرم، خیلی کار بزرگی کردی

Rahmat, juda katta ish qilding.

دمت گرم که این مشکل را حل کردی

Bu muammoni hal qilganing uchun rahmat.

دمت گرم رفیق، همیشه هوای من را داری

Rahmat, do‘stim, doimo menga yordam berasan.

3. «دو دره کردن» iborasi salbiy ma'noda qo'llaniladi. Bu ibora odatda kimdir vaziyatdan qochib ketganda, aldaganda yoki o'z manfaatini ustun qo'yib boshqalarni "tashlab ketganda" ishlatiladi. Ya'ni u qochish, xiyonat qilish yoki gapida turmaslik kabi holatlarni bildiradi.

Masalan, «کار رو دو دره کردم اومدم» jumlasini "ishni laqillatib kelib qoldim" degan ma'noni beradi. Bu yerda ish halol bajarilmagani yoki biroz "ayyorlik" ishlatilgani seziladi.

تو که گفتی امروز با دوست دخترتی

-آره ولی دو درش کرد

Sen aytding-ku, bugun qiz do'sting bilan birga bo'lishingni !

- Ha, lekin uni aldadim

(Ya'ni uchrashuvdan qochdim kabi ma'noda)

4. «آخیش» iborasi kundalik so'zlashuvda keng qo'llaniladigan hissiy ifodalardan biri bo'lib, odatda qiyin ish tugagach yoki inson charchoq va tashvishdan xalos bo'lganda ishlatiladi. U yengillik, osoyishtalik va ichki qoniqish hissini ifodalaydi.

Bu ibora o'zbek tilidagi "nihoyat", "hayriyat", "oh", "xudoga shukr" kabi ifodalarga ma'no jihatdan yaqin bo'lib, nutqda so'zlovchining ruhiy holatini ta'sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

آخیش، راحت شدم، امتحانها تمام شد

Ah, yengil bo'ldim imtihonlar tugadi.

آخیش! واقعیتو گفتم، احساس سبکی کردم

Hayriyat, voqeani aytib, o'zimni yengil his qildim.

5. «چرت و پرت»، «مزخرف» va «حرف مفت» kabi iboralar so'zlashuv nutqida mazmunsiz, behuda yoki ishonchsiz gaplarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu birliklar gapning ahamiyatsizligini, foydasizligini yoki asosga ega emasligini ta'kidlash maqsadida qo'llaniladi. Ba'zan ular yolg'on yoki asossiz fikrlarga nisbatan ham ishlatiladi

مزخرف نگو!

چرت و پرت نگو!

حرف مفت نزن!

Behuda gapirma!

داری مزخرف میگی.

Mazmunsiz gapiryapsan.

حوصله حرف مفت شنیدن ندارم!

Puch gaplarni eshitishga toqatim yo'q!

/ سه سوته / به سیم آخر زدن / دو دره / (کردن / دمت گرم /

یول / آخیش / مزخرف / چرت / چرت و پرت / حرف مفت kabi birliklar ko'rib chiqildi. Ularning ma'nolari aniqlanib, kontekstga qarab ishlatilishi tushuntirildi. So'zlashuv uslubidagi birikmalarni o'rganish

nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki amaliy muloqotda ham katta ahamiyatga ega: u Eronga sayohat qilayotgan yoki fors tilida so‘zlashuvchi bilan muloqot qilayotgan shaxsga nutqdagi tushunmovchiliklarning oldini olish, shuningdek, samimiy va ishonchli munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi. Shu tarzda so‘zlashuv birliklarini o‘rganish madaniy kontekstni anglash va tilning nozik jihatlarini to‘g‘ri tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Голева Г.С. Фарси-русский фразеологический словарь.
2. Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь.
3. Quronbekov A., Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2019. (88-bet)
4. ابوالحسن نجفی. فرهنگ فارسی عامیانه
5. YouTube. <https://youtu.be/RqeMmp03Vm8?si=Io3tIYIUOxBTSqua>
6. YouTube. <https://youtu.be/044ovQ9ajGc?si=ajP80XtW8UOUw1bV>
7. YouTube. https://youtu.be/ow1Jpt7zpME?si=BVNU_vdDaPvSMsi_
8. YouTube. https://youtu.be/ndRaPFSm7jA?si=FIbuDNoubmaAT4_5
9. YouTube. <https://youtu.be/64XtQ-if2-I?si=oTCNwG3TRhnBvoiL>
10. YouTube. <https://youtu.be/G6WwtYjq2Nk?si=708ouCVkkMjDUJ5d>
11. Abadis.ir. <https://abadis.ir/fatofa/%D8%AF%D9%85%D8%AA-%DA%AF%D8%B1%D9%85/>